



MAKTABGACHA YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI MUSIQA NAZARIYASI FANI RIVOJI BILAN TANISHTIRISH MASALALARI

Sattorova Go'zal Shakur qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san'at 7- muz 22 -1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Umumiy va qo'shimcha ta'lim muassasalarida nogiron bolalarni moslashtirish va ijtimoiylashtirish, shuningdek, ularning har tomonlama, shu jumladan, musiqiy va ijodiy rivojlanishi sharoitlari va usullarini o'rganish zarurligi shubhasizdir. - kelajakda samarali o'quv vakasbiy faoliyatga qodir va tayyor maktab o'quvchilarining barkamol shaxsi. Nogiron bolalar va kattalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlatning faol faoliyati bilan bog'liq holda, nogiron bolalarga musiqa o'rgatish usullarini takomillashtirish muammosi bugungi kunda dolzarbdir. Maqolada Rossiya va xorijiy musiqa o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan nogiron bolalarga musiqa o'rgatish usullari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar. *Ta'lim usullari, musiqa, nogironlar, o'qitish amaliyoti, inklyuziv ta'lim.*

KIRISH

Hozirgi davr zamonaviy jamiyatida ta'lim, inson faoliyatining eng muhim sohalaridan biriga aylandi hamda unga ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning asosiy, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Zamonaviy musiqa pedagogikasining muhim yo'nalishi Imkoniyati cheklangan o'quvchisini tayyorlash jarayoni samaradorligini oshiradigan vositalar va shart-sharoitlarni izlashdir. "Farzandlarimizni mustaqil fikrlovchi, zamonaviy kasb – hunarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi"– deydi O'zbekiston respublikasining prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimlarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar avlodni tarbiyalash birinchi navbatda oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga har jihatdan tayyor bo'lishini taqozo etadi.

ASOSIY QISM

Imkoniyati cheklangan bolalarning musiqiy-ijodiy rivojlanishiga, musiqa nazariyasi fanini real amaliy faoliyat bilan birgalikda mazmunli bog'lashiga; ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va o'ziga ishonchni hosil qilish, kelajakdagi kasbiy faoliyatining ahamiyatini tushunish va unda o'zini topishga qaratilgan.

Pedagog kasbi, uning mohiyatiga ko'ra murakkab va ko'p qirrali bo'lib, musiqa o'qituvchisi uchun juda ko'p talablarni qo'yadi. Pedagogik faoliyatning turli jihatlarini takomillashtirish musiqa o'qituvchisidan maxsus bilim, ko'nikma, malakalarni



egallashni talab qiladi, bu esa o'z navbatida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga va natijada pedagogik mahoratga ega bo'lishga olib keladi.

Oliy ta'limning musiqiy-pedagogik bo'limlarida ko'p yillar davomida musiqa o'qituvchilari tayyorlab kelinmoqda. Pedagogik oliy ta'limda Imkoniyati cheklangan o'quvchisining kasbiy tayyorgarligi davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Bo'lajak musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni asosan aniq shartlar, ta'lim mafkurasi hamda ustuvor ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Kasbiy tayyorgarlikdagi o'zgarishlar ham jamiyatning rivojlanishi va ta'lim tizimini rivojlantirayotgan sharoitlar bilan bog'liq.

Imkoniyati cheklangan bolalarning faoliyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, turli funktsiyalarni bajarishi bilan ajralib turadi, ulardan eng muhimi, o'quv dasturi doirasidagi musiqa asarlarini musiqiy nazariy tomondan tushungan va taxlil qila olgan xolda cholg'u asboblarda ijro etishdir. Ijrochilik mashg'ulotlari musiqa o'qituvchisi uchun kasbiy tayyorgarlik majmuasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Musiqa o'qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyati juda serqirra va rang-barangdir. Musiqa o'qituvchisi umumiy pedagogik kompetensiyalarga ega bo'lishi bilan birga musiqiy nazariy va boshqa fanlar bo'yicha kuchli nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, umumiy musiqiy iste'dodga ega bo'lishi, musiqani yaxshi eshitib idrok eta olishi badiiy mahorati va boy tasavvurga ega bo'lishi, cholg'u asbobini mukammal bilishi kerak.

Musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi, bolalar musiqa maktabidan farqli o'laroq, ushbu faoliyatning dastlab o'ziga xos ko'p funksiyaliligidadir. O'z vaqtida D. B. Kabalevskiy imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar maktablaridagi musiqa madaniyati fani o'qituvchilari va bolalar musiqa maktablari o'qituvchilari orasidagi eng muhim va asosiy farqni ta'kidlab o'tgan edi. Musiqa maktablari o'qituvchilarini tayyorlaydigan professional musiqa ta'limi tizimida musiqaning har bir yo'nalishi va ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan o'quv shakllari alohida, ozmi-ko'pmi mustaqil fanlarga bo'linadi: bu solfejio, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, xor. kuylash, cholg'uda ijro etish va hokazo. Bu fanlar tor mutaxassislik bo'yicha sikllarga guruhlangan tarzda o'zlashtiriladi: nazariy, ijrochilik, dirijyor- xor. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun musiqa o'qituvchilarini tayyorlash esa "Bu boshqa masala, - deb yozadi D. B. Kabalevskiy. Bo'lajak umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun alohida yo'nalish, alohida fanlar ham yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Bundan imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar maktabining malakali musiqa o'qituvchisini tayyorlashga qo'yiladigan qator talablar kelib chiqadi. "Umumpedagogik tayyorgarlikdan tashqari, u, albatta, cholg'u chala olishi, aniq va ifodali dirijyor-xor texnikasini puxta egallashi, qo'shiq aytishga qodir bo'lishi, musiqa tarixi va nazariyasini puxta o'rgangan bo'lishi, musiqa san'ati tarixi va nazariyasini o'rgangan bo'lishi, eshitgan musiqasini notalarini yoza olishi va kuyga sodda bo'lsa ham akkompaniment tera olishi kerak. Ko'rinib turibdiki 80 - yillardan



keyin ko'p narsa o'zgargan bo'lishiga qaramasdan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun musiqa o'qituvchilarini tayyorlash hozir ham dolzarbligicha qolmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tayyorlashda fanlar tuzilmasida musiqa nazariyasi fani o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lib, ularning nazariy va amaliy o'qitilishi asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Musiqa ta'limida musiqa nazariyasi, garmoniya fanlaridan chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash talab etiladi. Bugungi kundagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining musiqa nazariyasi fanidan tayyorgarlik darajasi oldingi yillarga qaraganda ancha tushib ketgan. Buning sababi oliy ta'limda musiqa ta'limi yo'nalishlarining o'quv rejasida musiqa nazariyasi fanining birlashtirib yuborilganligi hamda shu fanlarga yetarlicha soatlar ajratilmaganligida deb bilamiz.

Imkoniyati cheklangan bolalarni musiqa nazariyasi fanini o'qitishning muammolaridan biri ularning ta'lim bosqichlaridagi oldingi olgan bilimlari va tayyorgarligining turli darajada ekanligi hisoblanadi. Biz bilamizki "Musiqa madaniyati" fakultetiga musiqa nazariyasi fanidan bilim darajasi turli xil bo'lgan o'quvchilar o'qishga qabul qilinadi. Ayrim o'quvchilar faqatgina Bolalar musiqa maktabini tamomlab kelsalar, ayrimlari kasbga yo'naltirilgan maxsus kollej va litseylarni tamomlab keladilar. Shuning uchun barcha musiqa nazariyasi fanining individual harakterdagi darslar ekanini hisobga oladigan bo'lsak, turli xil bilim darajasiga ega bo'lgan o'quvchidan iborat guruxda yuqori samaradorlikka erishish qiyinligini ham tushunishimiz kerak albatta.

Shuning uchun o'quvchilarni o'quv yili boshlasnshidan avval bilim darajasiga qarab (xuddi umumiy o'rta ta'lim maktalaridagi musiqa madaniyati darslaridagi kabi) differensial guruxlarga bo'lish va shu guruxdagi o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab ular uchun darslarni tashkil qilish orqali biz yuqori samaradorlikka erishishimiz mumkin. Buning uchun biz o'quvchilarni bilim darajasi yuqori, o'rtacha va past bo'lgan uch guruxga bo'lib olishimiz lozim.

Yaxshi bilimga ega bo'lgan o'quvchilarga o'quv rejasi, fan dasturlari asosida dars o'tilsa, o'rtacha bilim darajasiga ega bo'lgan o'quvchilarga qo'shimcha darslarni tashkil etib ularni birinchi guruxdagi o'quvchilarga tenglashtirib olishimiz lozim bo'ladi. Uchunchi guruxdagi o'quvchilar uchun bunday qo'shimcha darslarni yana ham ko'paytirib ularning musiqa nazariyasi fani bo'yicha bilimlarini qolgan o'quvchilarga yetkazib olishimiz kerak bo'ladi. Barcha o'quvchilarning mavzular yuzasidan bilim darajasi nisbatan tenglashtirib olinganidan so'ng esa biz yuqori samaradorlikka erishimiz mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalarni musiqa nazariyasi fanidan yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishida ularni dars mashg'ulotlaridan tashqari o'z ustilarida muntazam ravishda mustaqil ishlashlari, mustaqil ta'lim olishlari ham katta ahamiyatga ega. Buning uchun imkoniyati cheklangan kōzi ojizlar maktabi o'quvchilarining musiqa nazariyasi kursi bo'yicha o'z ustilarida mustaqil ishlashlari



har bir darsda nazorat qilinishi zarurdir, bu esa o'z navbatida musiqa nazariyasi fanidan kerakli bilimlarning, ko'nikma va malakalarning izchil va tizimli ravishda o'zlashtirilib, kasbiy kompetensiyalarning egallanishiga xizmat qiladi. Har bir tematik bo'lim oxirida nazorat darslari hamda testlar tashkil etiladi. Ular mashg'ularda, mustaqil ta'lim olish natijasida, shuningdek asosiy cholg'u va boshqa musiqiy-nazariyfanlarda egallangan bilim va ko'nikmalarni aktallashtiruvchi vazifalar majmuasidan tashkil topadi. Shu tariqa kompetensiyalar doirasi doimiy ravishda kengayib boradi.

XULOSA

Mamalakatimizda musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida ibratli ishlar izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Bolalar musiqa va san'ati maktablarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar maktablarida musiqa ta'limi mazmunini, sifatini yaxshilash bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'rinda ta'limning muvaffaqiyatli kechishi ko'p jihatdan pedagog-rahbarning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, uning pedagogik, psixologik, metodik jihatdan tayyorgarligi, bilimi, mahorati, ijodiy tashabbuskorligi bolalarni san'atga bo'lgan mehrini, qiziqishini oshirish, ta'lim jarayonida ularni musiqiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, yanada rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'limda Imkoniyati cheklangan o'quvchisini tayyorlashning butun tizimini modernizatsiya qilish zarurati ham ta'lim tizimida yuz bergan katta o'zgarishlar bilan bog'liq. Asosiy vazifa maktab ta'limi sifatini ko'tarishdagi yangi talablarga javob bera oladigan yuqori darajadagi professional madaniyat va malakaga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlashdan iborat. Ushbu muammoni hal etish samaradorligi, ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar maktabi o'quvchilarini tayyorlash tizimini yaratish va uning mazmunini takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni topish bilan bog'liq bo'lgan oliy pedagogik ta'limning muammolari va vazifalarini hal etishga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. T.E. Solomonova "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent "O'qituvchi" 1981y
2. A. Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". T; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 1993y
3. O. Ibrohimov "O'zbek xalq musiqasi ijodi" 1994 y
4. И. Гивентальб Лю Щукина «Музыкальная литература» Москва «Музыка» 1986г.
5. B.X. Madrimov «O'zbek musiqasi tarixi» O'quv qo'llanma. Toshkent 2018y
6. H. Nurmatov, N. Yo'ldosheva "O'zbek xalq musiqasi ijodi". O'quv qo'llanma. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2007



7. Yu. M. Nosirova. "Rus musiqa tarixi". Ўзбекистон давлат консерваторияси. Таҳрир-нашриёт бўлими 2009 у.

8. Р.И. Грубер «Всеобщая история музыки». Государственное музыкальное издательство. Москва.

9. Тихомиров М.Н. Русская культура X-XVIII веков. –М., 1968.

10. Л.А. Рапацкая «История русской музыки от древней руси до «серебрянного века»». Москва; «Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС» 2001.

11. Э.Л.Фрид «Русская музыкальная литература». Издательство «Музыка» 1979г.